
"Abdulla Qodiriy" mavzeida navbatdagi sayyor qabul o'tkazildi

Bugun shahar hokimligi tomonidan tashkillangan sayyor qabulda sektor rahbarlari, majburiy ijro byurosi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonasining shahar bo'limi vakillari hamda tashkilotlar rahbarlari ishtirok etishdi.

"Abdulla Qodiriy" mavzeidagi 26-maktabda 60 nafarga yaqin fuqarolarning murojaatlari mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. 20 nafarga yaqin fuqarolarning murojaatlar ijobiy hal qilindi.

Kelib tushgan murojaatlarni o'rganish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi.

2023-11-10 09:47:56